



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARINI VUJUDGA KELISHI

Tojiboyeva Xumora

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti: Tarix o'qitish metodika yo'nalishi

4-boqich talabasi

Annotatsiya:

Xar bir inson o'z tarixini yaxshi bilishi zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlardek „Bugun bitta kitob o'qigan bola ertasga televizor ko'rgan bolalarni boshqaradi.” Mustaqillikdan avval ham biz ilmga intilgan xalq bo'lganmiz. Tariximizning mana shunday davrlaridan biri bo'lgan Jadidlar davrini bugun siz bilan ushbu maqola orqali yaxshiroq o'rganamiz.

Tayanch iboralar: Jadidchilik harakatining vujudga kelishidagi tarixiy shart sharoitlar. Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy va istiqlolchilik harakati sifatida maydonga chiqishiga turtki bo'lgan omillar. Turkiston o'lkasi jadidchilik harakati namoyondalari va ularning milliy uyg'onishda tutgan o'rni. Ismoilbek Gaspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Bexbudiy (1875-1919) va boshqalar. Jadid maktablari, jadid maktablarining tashkil topishi va rivojlanishi. Jadid milliy matbuoti. Jadid madaniy-ma'rifiy tashkilotlari va jadid adabiyoti. Jadidlarning siyosiy qarashlari.

XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyorilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rди. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik xarakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy vamadaniy isloxitlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini xayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilishgan. Jadidchilik mohiyatan, avvalo, siyosiy harakat edi. Turkiston mintaqasida jadidchilik xarakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi; Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtaida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylanayotgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90- yillaridan yoyila boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:

- 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha - ma'rifatchilik;
- 2) 1915 yildan 1918 yil fevraligacha - muxtoriyatchilik;
- 3) 1918 yil fevralidan 20 yillar oxirlarigacha - sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan muslimon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «tovush usuli» nomi bilan shuxrat qozondi. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdlorlari «jadidlari», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, o'zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasinitashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaxarlarga xam yoyiladi. I. Gaspirali 1893 yilda Markaziy Osiyoda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) xam shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

e'tiborga molikdir. Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalihsdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish, xamda ziyyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Jadidlar asarlarida ijtimoiy-madaniy g'oyalar va ularning mazmun mohiyati. Har bir davrda biror yangi g'oyaning tug'ilishi aniq tarixiy sharoitda sodir bo'ladi. Unda tarixiy shaxslarning o'ynaydigan rolini hyech kim inkor etmaydi. Chunki ular yetilgan muammolarni hal qilish yo'llarinining nazariy tomonlarini barchadan teranroq idrok qiladi, ularni amalga oshirishga favqulodda kuch va g'ayrat bilan kirishadilar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoiyarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalihslar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi:

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish;
- shariatni isloq qilish va xalqqa ma'rifat tarqatish;
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;
- Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;
- barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati g'oyalari Turkiston halqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakasiga qarshi kurashda muhim o'rinn tutadi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general gubernatorlaridan biri Kuropatkining o'z kundaliklaridagi qaydlari, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, qabilidagi so'zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyat parvar ziyyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati chor ma'muriyati to'siqlari





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

orasidan Turkistonga sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uyg'onish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish Ovro'pa ma'rifatchiliga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, O'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha - ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lismi imkoniyati yaratildi. Zero, o'sha g'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar. Ma'rifatchilik g'oyalari asosan uch soha orqali taraqqiy topib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvni natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi.

Jadidlarning o'lka xalqlari orasida olib borgan ma'naviy va madaniy faoliyati. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907 yillardagi 1-rus inqilobi, 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi, 1908 yil Turkiyada bo'lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar o'z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishar edi. Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari - shoir-yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqyealariga hamohang bordi. 1910 yillardayoq ma'rifat va ozodlik g'oyalari uning markaziy mavzuiga aylandi. Jadidlar o'zbek xalqi hayotiga tom ma'nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo'lga qo'yila boshlandi. Yevropa ko'povozli musiqa san'ati bilan tanishgan jadidlar o'zbek an'anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da'vat etishgan. 1919 yilda Toshkentning eski shahar qismi (hozirgi „Turon“ kutubxonasi yonidagi bino)da jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo'limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san'at vositasi bilan millat qadrini ko'tarish, san'atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. «O'zbekiston Respublikasi» maxsus jildining tegishli bo'limlariga adabiyoti, teatri, musiqasiga jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

dastavval diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o’qitish masalasini kun tartibiga qo’ydilar. Ular muslimon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagagi maktablarni ochdilar. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan. Jadidchilik harakati davomida ularning o’z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905-1906 yillarda <<Taraqqiy>> (muharriri Ismoil Obiliy), <<Xurshid>> (muharriri Munavvarqori), 1907-1908 yillarda <<Shuhrat>> (muharriri Abdulla Avloniy), <<Osiyo>> (muharriri Ahmadjon Bektemirov), <<Tujjor>> (muharriri Saidkarimboy Saidazimboy o’g’li), Buxoroda 1912 yilda „Buxoroyi sharif“ (muharriri Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon“ (muharriri G’iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913 yilda <<Samarqand>> (muharriri Mahmudxo’ja Behbudiy), Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ (muharriri Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jaev), Qo’qonda „Sadoyi Farg’ona“ (muharriri Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913-1915 yillarda „Oyina“ (muharriri Mahmudxo’ja Behbudiy), Toshkentda 1915 yil „Al-isloh“ (muharriri Abdurahmon Sodiq o’g’li) jurnallarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917-1918 yillarda Toshkentda <<Najot>> (muharriri Munavvarqori), <<Kengash>> (muharrirlari Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), <<Turon>> (muharrirlari M. Afandizoda, Abdulla Avloniy), <<Ulug Turkiston>> (muharriri Kabir Bakirov), <<Shuroy Islom>> (muharriri Abdulla Battol), <<Turk so’zi>> (muharriri Temirbek Xudoyorxonov), <<Turk eli>> (tahriri yati), Samarqandda <<Hurriyat>> (muharrirlari Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo’qonda <<Tirik so’z>> (muharriri Obidjon Mahmudov), <<el bayrog’i>> (muharriri Bo’lat Soliev) gazetalari va „Kengash“ (muharriri Hamza), „Yurt“ (muharriri Ashurali Zohiri) jurnallari chop qilindi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o’z sahifalariga ko’chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o’rtaga qo’ydi. 1909 yilda Toshkent ziyorilari tomonidan Jamiyat xayriya tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag’al muslimonlarga madaniy-ma’naviy yordam ko’rsatish masalasi qo’yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo’lida ko’rilgan tadbirlar edi. Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ko’rindilar. Xalq ularda o’z himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda o’tadigan Davlat dumasiga a’zolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqorievga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ko'pgina ijtimoiy talablar ko'rsatilgan edi. Abduvohidqori 20 fevral - 3 iyun 1907 yilda Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloh, Alimardon To'pchiboshev kabi musulmon ziyolilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan ko'p o'tmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi. Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906-1916 yillarda o'zining asosiy yo'lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o'zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O'lka moddiy va ma'naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho'lpon she'r va maqlolarida mustamlakachilarining asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev oliy o'quv yurti tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan fikrlashish chog'ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur etgan. Adabiyotdagi bunday uyg'onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro'y berdi. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev chor hukumati ma'murlarining poraxo'rligi va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi. Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi millat ongingin ochqichi» ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda <<erk>>, <<Turon>>, O'qituvchilar jamiyat» kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori aytganidek Ularning butun umidi Rossiyyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haququqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi». Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal harakat» deb ta'rif berilgan. SSSR parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarini qo'lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniyning II jildlik, Behbudi, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jaev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan Unutilmas siymolar», «Jadidchilik harakatining namoyandalari» (Toshkent, 1999) al'bom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1999 yil 16-18 sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlolchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi. Xulosa qilib shuni ayta olamanki xalqimizning saviyali bo'l shida jadidchilik harakatining o'rni beqiyos ular hyaratgan maktablar bugungi kundagi xalqimizning o'chmas tarixi bugungi kelajagimizning poydevori.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. - Toshkent.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash „, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent.: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston, 2017.
4. Tulenov J. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka. T. «Sharq». 2000 y